

IKKINCHI JAHON URUSHIDA O'ZBEK ASKARLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI

*Sharqiy harbiy okrug harbiy qism
kadr va safbo'linmasi boshlig'i
Shokirova Oxistaxon Xusanboevna*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushida o'zbek askarlarining g'alabaga qo'shgan hissasi, ya'ni ularning sharqiy Yevropa va Fransiyaning ozod qilinishidagi, Moskva ostonasidagi janglarda ko'rsatgan jasoratlari keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Brest, Smolensk, Kiyev, Odessa, Sevastopol, Leningrad, Qo'chqor Turdiyev, Madaminjon Hasanovdir, Zebo G'aniyeva, Mamadali Topiboldiyev, Ibrohim Otajonov.*

Абстрактный: *В третьей статье представлен вклад узбекских воинов в победу во Второй мировой войне, то есть их мужество в освобождении Восточной Европы и Франции, в боях на подступах к Москве.*

Ключевые слова: *Брест, Смоленск, Киев, Одесса, Севастополь, Ленинград, Кочкор Турдиев, Мадаминджон Гасанов, Зебо Ганиева, Мамадали Топиболдиев, Ибрагим Отажонов.*

Abstract: *In the third article, the contribution of Uzbek soldiers to the victory in the Second World War, that is, their courage in the liberation of Eastern Europe and France, in the battles on the outskirts of Moscow, was produced.*

Keywords: *Brest, Smolensk, Kiev, Odessa, Sevastopol, Leningrad, Kochkor Turdiyev, Madaminjon Hasanov, Zebo Ganiyeva, Mamadali Topiboldiyev, Ibrahim Otajonov.*

XX asr mobaynida insoniyat ikkita katta jahon urushini boshida kechirdi. Urush harakatlari olib borilayotgan front chiziqlarida millionlab begunoh kishilarning qoni to'kildi va moddiy va ma'naviy jihatdan jahon sivilizatsiyasiga o'zining salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, german fashizmining aybi bilan boshlangan ikkinchi jahon urushi 6 yil-u 3 oy davom etib, deyarli yer yuzining barcha mintaqalarini qamrab oldi. Dunyoning progressiv, taraqqiyparvar kuchlari fashizmga qarshi kurashda o'zaro ittifoqqa kelib, ezgulik, jaholat va zulm, zo'ravonlik ustidan g'alabaga erishdi. 2020-yilda fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 75 yillik yubileyi nishonlanadi. Ushbu qutlug' sana yurtimizdagi bir qator yubiley va bayramlar bilan uyg'un kelayotganligi yaratganning inoyati bo'lsa kerak. 2018-yil 31-mayda O'zbekiston Respublkasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning – Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqining qo'shgan hissasi bag'ishlangan kitob-albomni nashr etish chora-tadbirlari to'g'risidagi F-5294-sonli farmoyishi O'zbekistonning urushda ishtiroki masalalarini ilmiy asosida, yangicha tafakkur bilan tadqiq qilish masalasiga da'vat etdi [1].

Urushning dastlabki kunlaridayoq G'arbiy chegaralardagi harbiy qo'shilmalar tarkibida xizmat qilayotgan o'zbekistonliklar fashist bosqinchilarga qarshi jangga kirdilar. Chegarada joylashgan Brest qal'asining 50 dan ortiqroq millatga mansub jangchilari



orasida o'zbeklardan Doniyor Abdullayev, Bobohalil Kashanov, Ahmad Aliyev, Nurum Siddiqov, Uzoq O'tayev va boshqalar bor edi. Ular qal'a himoyachilari bilan yelkama-yelka turib dushmanning katta kuchlariga qarshi qariyb bir oy davomida oxirgi tomchi qonlari qolguncha jang qildilar.

O'zbekistonlik jangchilar qatnashgan Brest, Smolensk, Kiyev, Odessa, Sevastopol va Leningradning qahramonona himoyasi fashistlar Germaniyasining "Yashindek" tez harakat qilish rejasiga dastlabki zarba bo'ldi.

1941- yil kuz-qish oylarida Moskva ostonalarida hayot-mamot janglari bo'ldi. Moskva ostonalaridagi ana shu dahshatli janglarda O'zbekistonlik jangchilar ham sabot-matonat, yuksak harbiy mahorat ko'rsatdilar. Janubiy-G'arbiy front tarkibidagi 353-tog'-o'qchi polki jangchisi Qo'chqor Turdiyev katta jasorat ko'rsatdi. U 1941- yil 25-oktabrda safdoshlari bilan razvedkaga, so'ngra «til» olib kelishga yuborildi. Otishmada barcha quroldoshlari halok bo'lgan Qo'chqor Turdiyevning bir o'zi dushmanning bir DZOTini va 9 askar va zobitini yo'q qilib, 3 tasini asirga olib keldi. Bu jasorati uchun Qo'chqor Turdiyev o'zbekistonlik jangchilar orasida birinchi bo'lib Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi.

Toshkentda uzoq yillar xizmat qilgan general I.V.Panfilov Almati shahrida turkistonliklardan diviziya tuzdi. Uning komandirlari tarkibida Toshkent piyoda bilim yurti va O'rta Osiyo harbiy okrugining harbiy-siyosiy bilim yurtida ta'lim oigan 180 zobit bor edi. General I.V.Panfilov diviziyasi Moskva ostonalaridagi Volokolamsk yo'nalishida qattiq janglar qildi. Diviziya jang maydonida dushmanning 114 tankini, 26 ming askar va zobitlarini, 5 samolyot va boshqa ko'plab texnikasini yo'q qildi.

Butun O'zbekiston Moskva himoyasi uchun oyoqqa turgan paytda – 1941 yil noyabridan 1942-yil mart oyiga qadar O'zbekistonda harbiy qismlar tashkil etildi. Fashistlarni Moskva ostonalaridan uloqtirib tashlashda qahramonlik ko'rsatgan o'zbekistonlik jangchilardan 1753 kishi «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan taqdirlandi. Ulardan biri Andijon oblasti Qo'rg'ontepa rayoni Xonobod qishlog'ida 1924 yil 1 aprelda tug'ilgan Madaminjon Hasanovdir. U Moskva mudofaasida qatnashgan 159-polkdagi xizmat qilgan [2, 370-b].

O'zbekistonda tuzilgan 258-o'qchi diviziyasi askarlari Moskva ostonalaridagi janglarda 9000 dan ko'proq dushmanning askar va zobitlarini yer tishlatib, 137 aholi yashaydigan punktlarni ozod etib, birinchilardan bo'lib Oka daryosiga chiqib oladi, ko'plab jangovar texnikani qo'lga tushiradilar.

Moskva himoyachilari orasida o'zbek qizi Zebo G'aniyeva ham bor edi. 1942- yil 21-may kunigacha 23 fashistni yer tishlatdi. 16 marta razvedkaga borib, dushman to'g'risida qimmatli ma'lumotlar olib keldi. Zebo G'aniyeva jasorati uchun Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlandi.

Moskva ostonalarida o'zbekistonlik merganlar - Is'hoqov 354 fashistni, Abubokov 229, Yusupov 132, Madaminov 123 fashist askar va zobitlarini yer tishlatdilar. 1753 nafar o'zbekistonlik jangchilar «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan mukofotlandilar.

«Chekist» partizan otryadining razvedkachisi, qo'rqmas partizan Mamadali Topiboldiyevning nomi Belorussiyada mashhur bo'ldi. U dushmanning 67 askar va zobitlarini yo'q qilib, 180 tasini asirga oldi. M.Topiboldiyev ko'rsatgan jasorati uchun Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi. Belorussiyaning Pisarevo qishlog'i o'zbek xalqining



jasur o'g'loni nomiga Topiboldiyevka deb ataldi. Gomel atrofidagi «Temir yo'l urushi»da ishtirok etgan Jonibek Otaboyev, Bryansk atroflarida dushmanga to'satdan zarba bergan I.Musayev, A.Hakimov, I.Qosimov va boshqalarning nomlari urush solnomasidan o'chmas o'rin oldilar.

Stalingrad uchun bo'lgan janglarda O'zbekistonlik uchuvchi askarlar ham tengi yoq jasoratlar ko'rsatishgan. Shulardan biri Ibrohim Otajonovdir. U Stalingrad, 2 va 3-Ukraina frontlarida jami 270 ta parvozni amalga oshirgan. Mazkur parvozlari davomida u dushmanning qurol qurol yarog'larini yo'q qilish bilan birga partizanlarga oziq-ovqat ham yetkazib turgan [3, 79-b].

O'zbekistonliklar Yevropa mamlakatlarida avj olgan Qarshilik ko'rsatish harakatlarida ham faol qatnashdilar. Ular dushmanning maxsus lagerlaridan qochib, Chexoslovakiya, Polsha, Yugoslaviya, Gretsiya, Fransiya'dagi Qarshilik ko'rsatish harakatiga qo'shilib jang qildilar. Samarqandlik G.G.Bulatov otryadi Polshada o'nlab ko'priklarni, temir yo'llarni portlatdi, dushmanning harbiy qismlari va jangovor texnikasi ortilgan eshe'lonlarni ag'dardi. 1944 – yil o'rtalarida Slovakiyada fashistlarga qarshi ko'tarilgan milliy qo'zg'olonda o'zbekistonliklardan partizan otryadi komandiri V.F.Melnikov, R.Allamov, A.Narzullayev, R.Hamroyevlar ishtirok etdi. Yugoslaviyada ko'rsatgan jasorati uchun farg'onalik Uksanboy Xolmatov 3 marta Yugoslaviyaning mukofotlariga sazovor bo'ladi.

Fransiyada 37 millat va elatlarga mansub 2200 sovet harbiy asirlaridan tuzilgan partizanlar polki A.A. Kozaryan qo'mondonligida fransuz partizanlari bilan birgalikda jang qilib, Ales, Vilfor, Sen-Sheli shaharlarini, Gar va Lozer departamentining qishloqlarini fashistlardan ozod qildilar. Bu janglarda samarqandlik Abdulla Rahraatov, Bulung'urtumanidan Sariboy Shomurodov, toshkentliklar – Rahmon Rahimov, Nasib Amirov va boshqalar faol qatnashdi. Fransiyaning janubini ozod etishda ko'rsatgan jasorati uchun qo'qonlik Hoshim Ismoilov, toshkentlik Tojiboy Ziyayev Janna d'Ark kresti ordeni bilan mukofotlandi.

Shunday qilib, urush davri o'zbek xalqining dushman ustidan erishilajak g'alabaga safarbar etish, xalqning ruhiy qudratini ro'yobga chiqarish, olamshumul tarixiy voqealarga ulkan hissa qo'shishga qodir kuch ekanligini yorqin namoyish etdi. Urushning og'ir yillarida o'zbek xalqining yuksak ma'naviy ahloqiy fazilatlari, uning insonparvarlik, baynalminalchilik, vatanparvarlik xususiyatlari namoyon bo'ldi. Frontlarda qatnashgan o'zbek o'g'lonlarining ushbu xususiyatlarini bugungi kunda nafaqat respublikamizda, balki sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan boshqa respublika va Yevropa xalqlari ham e'tirof etishadi.

Bugungi kunda xalqlar ozodligi uchun jon fido qilgan ajdodlarimizning ko'rsatgan jasoratlarini alohida e'tirof etgan holda “Ajdodlarimiz jasorati – mangu barhayot” degan g'oya asosida mamlakatimizdagi barcha viloyat, tuman va shaharlarda Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilarining qahramonliklari, o'zbek xalqining front ortidagi fidokorona mehnati va g'alabaga qo'shgan beqiyos hissasi, front hududlaridan respublikamizga ko'chirib keltirilgan yuz minglab insonlarga nisbatan ko'rsatgan yuksak insonparvarlik fazilatlarini har tomonlama chuqur aks ettiradigan madaniy-ma'naviy tadbirlar, targ'ibot aksiyalari, konsert dasturlari, tasviriy san'at ko'rgazmalari, ijodiy kechalar, tanlovlar, ommaviy sport musobaqalari, “uch avlod vakillari uchrashuvlari”ni, shuningdek, mehnat jamoalari, mahalla va guzarlarda, turar-joy mavzularida obodonchilik ishlarini tashkil etish, fashizmga qarshi



kurashda qahramonlik ko'rsatgan yurtdoshlarimiz haqida yangi badiiy va hujjatli asarlar, kino va spektakllar, musiqa va tasviriy san'at asarlari yaratish ishlari olib borilmoqda [4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2018 y. F-5294-son "Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqining qo'shgan munosib hissasiga bag'ishlangan kitob-albomni nashr etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoyishi Lex.Uz sayti.
2. Shamsutdinov R. O'zbekiston xalqining buyuk g'alabaga qo'shgan hissasiga doir (1941-1945-yillar). – T: Akademya nashr, 2020. 370 – b.
3. O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi. Kitob albom. – T.: O'zbekiston, 2020. 79 – b.
4. Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 75 yilligini munosib nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.10.2019 yildagi PQ-4495-son Lex.Uz sayti.